



Jizzax viloyat statistika boshqarmasi

Jizzax viloyati bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

2019 yil yanvar-iyun (dastlabki ma'lumot)



Ish haqi. 2019 yil yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ish haqi tahlili quyidagilarni ko'rsatmoqda:

Ta'lim iqtisodiy faoliyati bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi



Ta'lim sohasida

• Ta'limda 43,0 ming nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 45,8 %ni). Ta'lim sohasida ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal ish haqi 1727,4 ming so'mni tashkil etib, 2018 yilning mos davriga nisbatan 31,0 % ga o'sdi;

Sanoat iqtisodiy faoliyati bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(2019 yil yanvar– iyun; kichik tadbirkorlik sub'ektlaridan tashqari)

• sanoatda 9,6 ming nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 10,3 %ni). Sanoat sohasida ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal ish haqi 1 871,0 ming so'mni tashkil etib, 2018 yilning mos davriga nisbatan 14,4 % ga o'sdi;





Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish faoliyati bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasida

• Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda 17,9 ming nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 19,0 %ni) . Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasida ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal ish haqi 1 411,1 ming so'mni tashkil etib, 2018 yilning mos davriga nisbatan 25,7 % ga o'sdi;

Tashish va saqlash faoliyati bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi



Tashish va saqlash

• Tashish va saqlashda 10,1 ming nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 1,1 %ni). Tashish va saqlash sohasida ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal ish haqi 1 570,7 ming so'mni tashkil etib, 2018 yilning mos davriga nisbatan 26,7% ga o'sdi;



Bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik faoliyati bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

Bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik faoliyati

• moliyaviy va sug'urta faoliyatida 2,2 ming nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 2,4 % ni). Moliyaviy va sug'urta faoliyati sohasida ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 3 604,4 ming so'mni tashkil etib, 2018 yilning mos davriga nisbatan 41,2 % ga o'sdi.



Ma'lumot uchun: O'zbekiston Respublikasining Mehnat Kodeksiga muvofiq, muayyan davr uchun belgilangan mehnat normasini va mehnat vazifalarini to'liq bajargan xodimning oylik mehnat haqi qonun hujjatlarida Mehnatga haq to'lash yagona tarif setkasining birinchi razryadi (2019 yil iyun oyida **577,2 ming so'mni** tashkil etgan) bo'yicha belgilangan miqdordan oz bo'lishi mumkin emasligi ko'rsatib o'tilgan.





Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ish haqi ko'rsatkichlarini umumlashtirish natijasida, 2019 yil yanvar - iyun oylarida Jizzax viloyatida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 1 770,1 ming so'mni (ish haqiga ustama, mukofot, rag'batlantirish xususiyatiga ega to'lovlar, kompensatsiya va ishlanmagan vaqt uchun haq kabi to'lovlar kiritilgan, shuningdek uning tarkibida jismoniy shaxslar daromad solig'i, ijtimoiy sug'urta va kasaba uyushmasiga to'lovlar ham mavjud) tashkil etib, 2018 yilning mos davriga nisbatan **29,2 %** ga o'sishni ta'minladi.

Yuridik shaxslarda xodimlar soni va o'rtacha oylik ish haqi
(2019 yil yanvar-iyun, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik sub'ektlaridan tashqari)

	Xodimlar soni, ming kishi	O'rtacha oylik ish haqi, ming so'm
Viloyat bo'yicha - jami	94,0	1770,1
<i>shu jumladan:</i>		
Sanoat	9,6	1871,0
Qurilish	0,3	1774,6
Savdo	1,5	2138,4
Tashish va saqlash	1,1	1570,7
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar		860,0
Axborot va aloqa	0,5	2273,3
Moliyaviy va sug'urta faoliyati	2,2	3604,4
Ta'lim	43,0	1727,4
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	17,9	1411,1
San'at, ko'ngil ochish va dam olish	0,7	2646,5
Boshqa faoliyat turlari	17,2	1790,2




2019 yil yanvar-iyun oylarida 2018 yilning mos davriga nisbatan iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining yuqori o'sish sur'ati san'at, ko'ngil ochish va dam olish 112,4 %, moliyaviy va sug'urta faoliyati 41,2, axborot va aloqa 32,3 %, boshqa faoliyat turlari 34,2 %, da kuzatildi.

2019 yil yanvar-iyun oylarida viloyatda o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan moliyaviy va sug'urta faoliyatida 103,6 % ga, san'at, ko'ngil ochish va dam olish 49,5% ga , axborot va aloqa 28,4% ga, savdoda 20,8% ga, sanoatda 5,7 %ga, boshqa faoliyat turlarida 1,1 %ga, yuqorini tashkil etgan bo'lsa, aksincha yashash va ovqatlanish 51,4 %ga, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda 20,3 %ga, tashish va saqlashda 11,3 %ga, ta'limda 2,4 %da, viloyatdan kamni tashkil etmoqda.




O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori va o'sish sur'ati (2019 yil yanvar-iyun, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik sub'ektlaridan tashqari)



O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichini viloyati hududlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, ya'ni o'rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Jizzax shahrida **2171,1** ming so'mni (viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan **123,4** %), Arnasoy tumanida **1836,1** ming so'mni (**103,7%**), va Baxmal tumanida **1772,3** ming so'mni (**100,1%**) tashkil etgan bo'lsa, Zomin tumanida **1 686,3** ming so'mni (**95,3** %), Do'stlik tumanida **1 662,4** ming so'mni (**93,9** %), Zarbdor tumanida **1 161,6** ming so'mni (**67,2** %) tashkil etib, boshqa hududlarga nisbatan kam miqdorga ega bo'lmoqda.

Hududlar bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi
(2019 yil yanvar-iyun, viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan, % da)



Jizzax viloyati bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi (yanvar-iyun; qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik)

	2018 yil	2019 yil	O'sish sur'ati, %
Jizzax viloyatida	1370,6	1770,1	129,2
Jizzax shahri	1685,5	2219,4	131,7
<i>viloyatlar:</i>			
Arnasoy	1 145,9	1836,1	160,2
Baxmal	1 274,7	1772,3	139,0
Gallaorol	1 224,4	1514,4	123,7
Sh.Rachidov	1 171,2	1640,9	140,1
Do'stlik	1 303,8	1662,4	127,5
Zomin	1 175,6	1686,3	143,5
Zarbdor	1 258,2	1161,6	92,3
Zafarobod	1 337,6	1546,8	115,6
Mirzacho'l	1 099,8	1452,4	132,1
Paxtakor	1 165,8	1491,4	127,9
Forish	1 228,4	1445,3	117,7
Yangiobod	1 072,7	1457,6	135,9

